



UDK 821.512.133.0

**Matluba NORBABOYEVA,**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O'zbekiston  
E-mail: mnorbaboyeva@gmail.com ORCID: 0009-0004-8260-7240*

*QarDU professori, f.f.d G.Ernazarova taqrizi asosida*

### ORPHANITY MOTIVE IN MODERNIST PROSE

Annotation

This article identifies the theoretical foundations of the orphanhood motif in modernist literature. The orphanhood motif and the image of an orphan child are analyzed using the example of modern prose. The use and poetic features of the orphanhood motif in modernist prose are revealed.

**Keywords:** orphanhood motif, modernist prose, episodic image, modern element, epic imagery, story, image, basic motif, postmodernist imagery style.

### МОТИВ СИРОТСТВА В МОДЕРНИСТСКОЙ ПРОЗЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы мотива сиротства в модернистской литературе. Мотив сиротства и образ ребенка-сироты анализируются на примере современной прозы. Раскрываются использование и поэтические особенности мотива сиротства в модернистской прозе.

**Ключевые слова:** мотив сиротства, модернистская проза, эпизодический образ, современный элемент, эпическая образность, история, образ, основной мотив, постмодернистский стиль образности.

### MODERNISTIK NASRDA YETIMLIK MOTIVI

Аннотация

Ushbu maqolada modernistik adabiyotda yetimlik motivining nazariy asoslari aniqlangan. Zamonaviy nasr misolida yetimlik motivi va yetim bola obrazi tahlilga tortilgan. Modernistik nasrda yetimlik motivining qo'llanilishi, poetik xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** yetimlik motivi, modernistik nasr, epizodik obraz, modern unsur, epik tasvir vositalari, hikoya, obraz, tayanch motiv, postmodernistik tasvir uslubi.

**Kirish.** Adabiyotda faqat chiroyli tasvirlar yetakchilik qilsa, ezgulikni targ'ib qilish imkoni kengroq. Agar tartibsiz hayot tasviri yetakchi bo'lsa, yaxshi insonni tarbiyalash qiyinroq kechadi, biroq u haqiqiy o'zligini anglab yetgan, o'zini kashf etgan qahramon bo'lib shakllanishi sir emas. Zamonaviy nasrda yetimlik motivining ifoda etilishi ko'pincha ruhiyatni tushiradigan, salbiy holatni his qiladigan tasvirlarga to'la. Mazkur maqolada modernistik nasrdagi yetimlik motivi bilan bog'liq tasvirlar tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon va rus adabiyotshunosligida yetim bola obrazi muammosi V.I. Nikolayevna, S.Y. Neklyudov, O. Buxin, A. Lanu, Laurin kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan. O'zbek adabiyotshunosligida yetimlik mavzusiga oid izchil ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Obraz masalasi I.Sulton, B. Sarimsoqov, T. Boboyev, A. Ulug'ov, D. Quronov kabi olimlarning tadqiqot ishlarida yoritilgan, yetim bola obraziga oid ayrim masalalar esa L. Qayumov, H. Abdusamadov, M. Qo'shjonov, U. Normatov, I. G'afurov, A. Rasulov, S. Meli, B. Nazarov, Q. Yo'ldosh, M. Jo'rayev, M. Olimov, R. Barakayev, U. Jo'raqulov, U. Hamdam, M. Kuchkarova, Sh. Akramov, S. Babayeva, A. Qosimov, X. Ahmadjonov, R. Tulaboyeva, R. Umurzakov kabi adabiyotshunoslarning ilmiy ishlarida nazariy asoslangan. Yetim bola obrazi muammosi o'zbek adabiyotshunosligida alohida tadqiqot doirasida o'rganilmaganligi masalaning monografik tarzda tadqiq etilishi muhimligidan dalolat beradi. Mazkur tadqiqotimizda yangi o'zbek nasrida yetim bola obrazining poetik takomilini talqin qilish va mavzuga oid yetakchi tamoyillarni belgilashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqola o'zbek va jahon adabiyotshunosligidagi ilmiy xulosalardan foydalanilgani, yetim bola obrazining biografi, sotsiologik, germenevtik, psixologik, qiyosiy-tarixiy usullarda ilmiy-nazariy tadqiq etilgani, yangi poetik xususiyatlari ochib berilgani bilan ahamiyatga molik.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi adabiy jarayonda har qanday yangilikni o'zlashtirishda sharqona badiiy tafakkur asosida yondashilsa, bizningcha, badiiy adabiyot asl o'zagidan, asl badiiy mohiyatidan yiroqlashmaydi. O'zbek adabiyotida modern unsurlar ta'siridagi asarlar mavjud, bizningcha, aynan sof modern yo'nalishda yozilgan asar deb aytish maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday asarlarda ijodkor sharqona etikadan butunlay chiqib ketmaydi, baribir badiiy mohiyat o'z tarixiy ildizimizga borib taqaladi. "Shafqatsiz borliq qarshisida yolg'iz va himoyasiz qolgan bu kimsaning tuyg'ular olami uni o'rab turgan voqelik qarqini (sur'ati) bosimiga dosh berolmasligi oqibatida jamiyatdan begonalashib abgor bo'lishini tasvirlash g'oyat keng yoyildi"[1] [1;26]. Jumladan, N. Eshonqulning "Bevaqt chalingan bong" hikoyasi qahramoni qorovul qismatini eslaylik, bu obraz butun umr bolalikning azobli xotiralari iskanjasida yashashga mahkum. Jamiyatdagi nohaqliklarni jim turib qarshi olishi, yolg'izligi, umr bo'yi yolg'izligicha qolishi, odamlarning undan qochishi, aslida bironvga ozor bermasligi, shunda ham odamlarning uning achchiq xotiralarini bot-bot eslatishi, yuziga solishi, uning nafsoniyatiga tegishi, obraz botinidagi bongning bevaqt chalinishiga olib keladi. Bunday qahramonlarning adabiyotga kirib kelishi inson botinidagi evrilishlar tasvirini kuchaytirdi. Adabiyotda inson, uning olami haqidagi badiiy qarashlar,

tasavvurlar kengaydi. Asar qahramonining taqdiriga yetimlik tayanch motiv funksiyasini bajaradi. Umuman olganda, yuqoridagilarga muvofiq yetimlik mavzusi va motivi zamonaviy nasrimizda XX asrning 80-90-yillaridan boshlab bir qancha noodatiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Bunda shaklga keng yo'l ochish, tartibdan chekinib, tartibsizlikka ergashish kabi holatlar hal qiluvchi rol o'ynadi. Nasrimizdagi bunday izlanishlar fonida yetim bola obrazining modern va postmodernistik ifodasi ikki yo'nalishda badiiy talqin qiliganini ta'kidlash kerak:

1. Sof modernistik badiiy tasvir vositalari yetim bola obrazini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi;

2. Yetimlik motivining poetik talqinida postmodernistik tasvir uslubi namoyon bo'ladi.

T. Rustamov, N. Eshonqul asarlarida yetim bola obrazini yaratishda moderncha yondashuv ko'zga tashlansa, Sh. Hamro, I. Sulton ijodida postmodernistik talqin ustuvorlik qiladi. Nasrimizda modernistik hamda postmodernistik adabiyotga xos xususiyatlar yetim bola obrazi poetik tasvirida ham kuzatiladi.

Agar modernistik nasrdagi yetim bolaga doir bunday o'zgarishlarni muxtasar jumladan ifodalab ko'rsatilsa, quyidagi xususiyatlar oydinlashadi:

1. Zamonaviy o'zbek nasrida yetim bola epizodik obraz sifatida asar g'oyasini ifodalashda badiiy vazifa bajaradi.

Shuningdek, asar syujet liniyalarini ulashda, voqeadan voqeaga o'tishda, asar kompozitsiyasini tashkil qilishda muhim epizod o'laroq, poetik ma'no kasb etadi. Masalan, T. Rustamovning "Kapalaklar o'yini" romanida Suvon Abdol va uning bolalari epizodik obraz sifatida tasvirlansa, N. Eshonqulning "Urush odamlari" qissasida epigraf sifatida olingan mana bu parcha yuqoridagi qarashlarga asos bo'ladi. "...Men katta bo'lsam multiq sotib olaman"

"Miltiqni nima qilasan?..."

"Otamni otaman!!!" [2] [2].

2. Zamonaviy o'zbek nasrida rad etilgan yetim bola va ota obrazlari ifoda etiladi.

Zamonaviy nasrimizda ota va o'g'il o'rtasidagi konflikt, oila singari azaliy, muqaddas qadriyatlarimizga darz ketish kabi badiiy tasvirlar kuzatilmoqdaki, ko'p vaziyatlarda rad qilinishga nikohsiz dunyoga kelgan farzandlar qismati hamda bolaning otaga oq bo'lishi ifoda etiladi. Folkloridan to hozirgi adabiy jarayongacha o'zbek adabiyotida baralla kuylangan oila, ota-onaga hurmat kabi sharqona qadriyatlarining rad etilishida G'arb epik tafakkurining ta'siri bordek. Aytaylik, jahon modernizm adabiyoti namoyandalari Jeyms Joysning "Uliss" sarguzashti, Frans Kafkaning "Otamga xat", Alber Kamyuning "Begona" asarlarida ayni muammoning badiiy talqini uchraydi. O'zbek nasrida N. Eshonqulning "Qora kitob", I. Sultonning "Qismat" ("Ayvon") hikoyalarida bunday tipdagi insonlar hayoti qalamga olingan.

3. Zamonaviy o'zbek nasrida ma'naviy inqiroz, buzilgan muhit va qiyomat alomatlarini asoslashda yetim obrazi tasviri orqali ko'rsatilishi nazarda tutiladi. Bunda odam va olam munosabati, inson umri, uning savobi hamda gunohi bir butun holda umumhoziyat kasb etadi. Bunday asarlarda yetimlik mavzusiga doir qadriyat va an'analarga darz ketgani, odamlarning yetim bolaga bo'lgan zulmi, uning haqidan qo'rqmaslik, gunoh qilishdan cho'chimaslik holatlari orqali badiiy talqin qilinadi. Bundan tashqari badiiy asarda voqelikni poetik idrok etishda badiiy shartlilik, ramziy talqin, metaforik tafakkur kabi epik tasvir

vositlari yetakchi omil sifatida bo'y ko'rsatadi. Badiiy asarning motiv, detal, obraz, syujet singari poetik komponentlari ham ramziy ma'no kasb etadi. Butun asar syujeti oqibatdan sababga qarab shiddat bilan yechimga qarab rivojlanib boradi. Zamonaviy o'zbek nasrida Sh. Hamroning "Qora kun", I. Sultonning "Munojot" qissalarida yetim bola obrazi yuqoridagi omillarga tayanib badiiy talqin qilinadi.

4. Modernistik asarlarning tasvir obyekt sifatida yetim bolaning botinidagi evrilishlar ifoda etiladi. Bu tipdagi asarlarda yetim bola atrofidagi voqealardan chekinib, uning ichki olamidagi tug'yon badiiy ifoda etiladi. Begonalik, yolg'izlik, isyon va tushkunlik motivlari bunday obraz botinini yoritishda yetakchilik qiladi. Asar voqeasi assotsiativ va retrospektiv syujet tipi orqali ikkinchi shaxs "sen" tilidan bayon qilinadi. Ta'm, hid, tovush va rang detallari yetim bolani tashqi olam bilan bir butun holda ifodalashda hamda uning ichki dunyosini anglashda poetik tayanch vazifasini bajaradi. Yuqoridagi zamonaviy o'zbek nasriga xos jihatlardan faqat yetim bola obraziga daxldor bo'lmay, badiiy asarning har bir poetik komponenti ifodasida bo'rtib ko'rinadi. Ko'p hollarda bunday asar qahramonlari o'z oilasidan, ota-onasi, yaqinlaridan ayro holda yolg'izlikda tasvirlanishi ularning ruhiyatidagi o'zgarishlarni badiiy taftish etishga asos bo'ladi. Bu esa yetim bolaga bo'lgan e'tiborning susayishiga olib keladi. Ko'proq uning "men"i, ichki istaklari, kayfiyati badiiy talqin qilinadi. T. Rustamovning "Kapalaklar o'yini" asari zamonaviy o'zbek nasridagi ilk romanlardan biri desak, to'g'ri bo'ladi. Romanning syujet qurilishi, kompozitsiyasi, o'ziga xos bo'lib, asar voqeasi Baqahovuz xronotopida ro'y beradi. Bu asar o'zining bayon tarzi, gap qurilishi, voqeadan voqeaga o'tishi, vaziyatga qarab asar xronotopining o'zgarib turishi, inson ichki dunyosini badiiy taftish qilishi bilan an'anaviy asarlardan farq qiladi. Bu asar haqida Qozoqboy Yo'ldoshev: "Unda biz ko'nikkan an'anaviy bayon yo'q, tinimsiz dinamika, hayotning o'zidagi kabi ko'p qirralilik va insonning o'ylash yo'sini yanglig' tartibsizlik aks etgandi"[3] [3;6], – deb yozadi. Romanda Sardor ismli yetim bola epizodik obraz sifatida kiritiladi. Asarda muallif retrospektiv usulda bolaning taqdirini, bolaning olamini, uning o'gay otaga, atrofda qilargalarga munosabatini ko'rsatib beradi. "Umuman, Sardor Sardor bo'lib, hech qachon uni biron qo'lida gul tutgan holda ko'rmagandi"[4] [3;438]. Ko'rinadiki, romanda yetim bola epizodik obraz sifatida talqin qilinsa-da, uning "keldik" degan da'vatiga o'rtoqlari labbay deb bo'ysunishi, boshiga tushgan yetimlik azoblaridan hech kimga lom-lim demasligi, dardi-hol qilishni yoqtirmasligi badiiy ifoda etiladi. Har jabhada yetim bo'lishga qaramasdan ismiga monand harakat qilishi, biroq sardorlarning vaqtli vafot etib ketgani ayni davrda bunday shaxslarni topish qiyinligi orqali romanning bosh badiiy g'oyasiga ishora qilinadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, modernistik nasrdagi yetim bola obrazining quyidagicha ilmiy-nazariy, poetik xususiyatlari aniqlandi:

Zamonaviy o'zbek nasrida yetim bola epizodik obraz sifatida asar g'oyasini ifodalashda badiiy vazifa bajaradi;

Zamonaviy o'zbek nasrida rad etilgan yetim bola va ota obrazlari ifoda etiladi;

Zamonaviy o'zbek nasrida ma'naviy inqiroz, buzilgan muhit va qiyomat alomatlarini asoslashda yetim obrazi tasviri orqali ko'rsatilishi nazarda tutiladi; Modernistik asarlarning tasvir obyekt sifatida yetim bolaning botinidagi evrilishlar ifoda etiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Йўлдош Қ. Модернизм: Илдиэ, мохият ва белгилар // Ёшлик. 2014. 9-сон. – Б. 26
2. Эшонқул Н. Ялпиз хиди. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 400 б.
3. Рустам Т. Денгизни кўрмаган одамлар. – Тошкент: Global Books, 2021. – Б. 6.
4. Umurzakov R. XX asr o'zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2021. – 135 b.
5. Umurzaqov R. Xalq ertaklaridagi bolalik tasviriga doir / "Filologiya ta'limi masalalari: muammo va uning yechimlari" mavzusidagi xalqaro amaliy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent, 2022. 2-qism. 11-may. – 346 b.
6. Safarova Z. G'afur G'ulom asarlarida yetim bola hayoti va yetimlikka munosabatning yoritilishi // Xorazm Ma'mun akademiyasi. – Xorazm, 2022. – № 1. – B. 354-356.
7. Tulaboyeva R. Badiiy asarda ijtimoiy muhit va bola ruhiyati // Yoshlik. – Toshkent, 2011. 6-son. – B. 56-58.